

**GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA TA'LIM DASTURLARINI
MODERNIZATSIYA QILISH: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY
YONDASHUVLAR**

Haytbayeva S. R.¹

¹ Xalqaro Nordik universiteti "Pedagogika" kafedrasi katta
o'qituvchisi., p.f.f.d (PhD)
s.haytbaeva@nordicuniversity.org

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 18.05.2025

Revised: 19.05.2025

Accepted: 20.05.2025

ANNOTATSIYA:

ushbu maqolada globalizatsiya sharoitida ta'lism dasturlarini modernizatsiya qilish jarayoni tahlil qilinib, xalqaro tajriba va milliy yondashuvlarning o'zaro uyg'unlashuvi muhokama qilinadi. Tadqiqot Finlyandiya, Buyuk Britaniya va Singapur kabi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim dasturlarini qiyosiy o'rghanish orqali o'quv dasturlarini isloq qilishning samarali tamoyillarini aniqlashga qaratilgan.

KALIT SO'ZLAR:

Ta'lism dasturlarini isloq qilish, xalqaro pedagogik tajribalar, innovatsion ta'lim yondashuvlari, moslashuvchan o'quv rejali, ta'lim standartlari va global tendensiyalar, kontekstga mos ta'lim strategiyalari, didaktik modellar va ularning integratsiyasi, akademik dasturlarni takomillashtirish, fanlararo integratsiya va kompetensiyalar, ta'lim siyosati va amaliy islohotlar.

KIRISH. Tahlil qilish metodi sifatida xalqaro pedagogik tajribalarni tahlil qilish, didaktik modellar va ularning integratsiyasini o‘rganish, shuningdek, moslashuvchan o‘quv rejalarini va ta’lim standartlarining global tendensiyalarga mosligini baholash qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, muvaffaqiyatli o‘quv dasturlari muvofiqlik, muvozanat, inklyuzivlik va kontekstga moslashuvchanlik kabi tamoyillarga asoslanishi zarur. Shuningdek, xalqaro yondashuvlar ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda fanlararo integratsiya va kompetensiyalarni rivojlantirish muhimligini ko‘rsatmoqda.

Umuman olaganda ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilishda yagona universal yondashuv mavjud emasligi aniqlanib, milliy ta’lim tizimlari global standartlarga moslashgan holda, o‘quvchilarining madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlariga moslashtirilishi lozimligi ta’kidlanadi.

O‘quv dasturi har qanday ta’lim tizimining negizini tashkil etib, o‘quvchilarining akademik jarayon davomida egallagan bilimlari, ko‘nikmalari va munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi globallahsgan dunyoda ta’lim tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni inobatga olish zarurati tobora ortib bormoqda. Xususan, Buyuk Britaniyaning Bedfordshire universiteti tadqiqotlariga ko‘ra, zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarini global mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashi lozimdir⁸⁰

Mazkur universitet ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash hamda madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi. Shunday kompetensiyalarni shakllantirish uchun inklyuziv va xalqaro miqyosda dolzarb bo‘lgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish talab etiladi. Bu maqsadga erishishda turli zamonaviy pedagogik yondashuvlardan, ilmiy-tadqiqot loyihibaridan samarali vosita sifatida foydalanish mumkin. Ushbu usullar madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berib, globallahuv sharoitida kasbiy muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, o‘quv dasturlarini xalqaro miqyosda tahlil qilish orqali o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim tizimlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy tamoyillar va moslashuvchan amaliyotlarni aniqlash mumkin. Ushbu maqolada o‘quv dasturlarining mohiyati, uning asosiy tarkibiy qismlari, tanqidiy tahlili va xalqaro tajribadan olinadigan saboqlar muhokama etiladi.

⁸⁰ K. S. Dillon, "Internationalization and Curriculum Development: Why and How," Journal of Pedagogic Development, vol. 4, no. 3, 2025. Available at: <https://www.beds.ac.uk/jpd/volume-4-issue-3/internationalisation-and-curriculum-development-why-and-how?form=MG0AV3>

2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Prezident farmoni – "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" – ta'lim sifatini oshirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali yoshlarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida ushbu konsepsiya ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganib, milliy ta'lim tizimimizga joriy qilish muhim vazifa sifatida belgilangan.⁸¹

Yuqoridagi ustivor vazifalarning amaldagi ijrosini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 2-apreldagi 107-son buyrug'i asosida ta'lim tizimini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish va ta'lim sifatini oshirish maqsadida Respublika Ta'lim Markazi huzurida fanlar kesimida ishchi guruhlar tashkil etilib, Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ushbu jarayonda maxsus o'quv mashg'ulotlari tashkil etilib, unda ta'lim sohasi mutasaddilari, ekspertlar va amaliyotchi o'qituvchilardan iborat ishchi guruh a'zolari ishtirok etdi. Mashg'ulotlar davomida ishtirokchilar o'quv dasturlarini loyihalash jarayoni, uning tarkibiy qismlari, fanlararo bog'liqlik, kompetensiyaviy yondashuv va baholash tizimlarini xalqaro tajriba asosida shakllantirish usullari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldilar.

Shuningdek, ilg'or ta'lim tizimlari, jumladan, Buyuk Britaniya (Kembrij dasturi), Singapur, Finlyandiya kabi davlatlarning o'quv dasturlarini ishlab chiqish tamoyillari tahlil qilinib, ularni mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari o'rganildi. Ushbu jarayon natijasida ishchi guruh a'zolari zamonaviy ta'lim dasturlarini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'ldilar.

Metodologiya

O'quv dasturini loyihalash asoslari

Ta'lim tizimini takomillashtirish jarayonida maktab ta'limi uchun mo'ljallangan o'quv dasturlarini loyihalash muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Maktab ta'limi uchun o'quv dasturining samarali dizayni loyihalash va qabul qilish jarayonlarining uzviy bog'liqligini ta'minlab, ta'limga tizimli yondashuvni shakllantiradi. Asosiy e'tibor dastur doirasining aniq belgilanishiga qaratilishi lozim. Ya'ni, dastur

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF – 5712-son “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni.

amaliyotga joriy etilganda uning bosh maqsad va tamoyillariga mos kelishi muhimdir. Bu esa ta’lim jarayonining yaxlitligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, dizayn jarayoni o‘quv dasturlari, o‘quv rejalarini hamda baholash bo‘yicha qo‘llanmalar kabi asosiy hujjatlarni aniqlash, ularni samarali boshqarish va o‘zaro bog‘liqligini anglashni talab etadi. Yuqoridagi elementlarning uyg‘unligi ta’lim jarayonining yaxlit va sifatli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Finlyandiya milliy o‘quv dasturlarining qiyosiy tahlili natijasida ushbu tizimning yaxlit va o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslanganligi aniqlandi. Integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, fanlararo bog‘liqlikni tushunish, mustaqil ta’lim olish, jamoada ishlash, samarali muloqot qilish hamda o‘zgaruvchan muhitga moslashish kabi muhim ko‘nikmalar rivojlantiriladi.⁸²

Turli yondashuvlar maktab ta’limi uchun o‘quv dasturlari dizaynida har bir mamlakatning o‘ziga xos ta’lim maqsadlari, ijtimoiy kontekstlari va intilishlarini aks ettiradi. Shu bois, o‘quv dasturlari doirasini mahalliy ehtiyojar va ustuvorliklarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashkil etilgan o‘quvlar natijasida o‘rganilgan ilg‘or xorijiy tajribalar asosida maktablar uchun o‘quv dasturlarini loyihalashda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish muhimligi aniqlandi.

O‘quv dasturining muvofiqligi deganda uning rasmiy belgilangan maqsadlari, amalda qanday tatbiq etilishi va o‘quvchilar tomonidan qanday o‘zlashtirilishi o‘rtasidagi moslik tushuniladi.⁸³ Yuqori darajadagi muvofiqlik ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga hamda kompetensiyalarni mustahkam shakllantirishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, muvofiqlik – bu ta’lim standartlari, o‘qitish metodlari hamda baholash tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlik va izchillikni ta’minalash jarayonidir.

Zamonaviy ta’limning taniqli tadqiqotchilari ta’kidlaganidek, izchillik standartlarning yuqori sifatini belgilovchi element bo‘lib, manfaatdor tomonlar (o‘quvchilar, ota-onalar, siyosatchilar, ta’lim muassasalari) o‘rtasida hamfikrlilik va sadoqatni

⁸² UNESCO International Bureau of Education, "Developing and Implementing Curriculum Frameworks," 2017. Available at: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000263831?form=MG0AV3>

⁸³ Mowbray, C. T., Holter, M. C., Teague, G. B., & Bybee, D. (2003).

rivojlantiradi.⁸⁴ Shu bilan birga, o‘quv dasturini loyihalashda akademik hamda ijtimoiy-emotsional ta’limni birlashtirish, kenglik va chuqurlik o‘rtasidagi muvozanatga erishish talab etiladi. O‘quv dasturi yuklamasi (o‘quvchilarga beriladigan vazifalar hajmi, darslarning murakkablik darajasi va ularni bajarish uchun talab qilinadigan vaqt) va o‘qitish tezligi o‘rtasida muvozanatni ta’minlab, o‘quvchilarga ortiqcha bosim bermasdan bilimlarni samarali va tushunarli o‘zlashtirish imkonini yaratish lozim.

Muvofiqlik va muvozanatlilik o‘quv dasturining samarali loyihalashning asosiy ustunlari bo‘lib, uning har tomonlama muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. Kembrijda o‘quv dasturining izchilligi yuqori natijalarga erishish uchun muhim hisoblanadi. Bu tamoyil dasturning strukturasi, o‘qitish amaliyoti va baholash tizimining uzviy bog‘liqligini ta’minlab, o‘quvchilarga keng qamrovli va samarali ta’lim tajribasini yaratishga yordam beradi. Ushbu xususiyatlar o‘quv dasturining ichki va tashqi jihatlari o‘rtasidagi mantiqiy hamda tizimli bog‘liqlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ichki jihatlar sifatida progressiya (o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishi, murakkablik darajasining ortib borishi) hamda o‘quv fanlari va bo‘limlari o‘rtasidagi aloqadorlik (fanlar o‘rtasidagi uzviy aloqani ta’minalash, bir-birini to‘ldiruvchi mavzularni uyg‘unlashtirish) ko‘rilsa, tashqi jihatlar esa milliy yoki xalqaro ta’lim standartlariga javob berish, PISA, TIMSS kabi baholash dasturlari talablariga mos kelish va mamlakatning strategik maqsadlariga moslashuvini o‘z ichiga oladi.

Finlyandiya ta’lim modelida ichki va tashqi muvofiqlikka katta e’tibor berilib, o‘quv dasturi o‘quvchilar bilimlarini bosqichma-bosqich shakllantirishga hamda turli fanlararo integratsiyani ta’minalashga urg‘u bergan. Shuningdek, ushbu modelga asosan maktablarda izchil pedagogik yondashuvlarni ta’minalash maqsadida o‘qituvchilarning malakasini oshirish o‘quv dasturi maqsadlariga muvofiq ravishda tashkil etiladi.⁸⁵

Singapur ta’lim tizimi so‘nggi yillarda konstruktivistik yondashuvga asoslangan, chuqur o‘zlashtirishni rag‘batlantiruvchi va metakognitiv hamda transversial ko‘nikmalarni erta shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli o‘quv dasturini ishlab chiqishga e’tibor qaratmoqda. Ushbu xalqaro tajribalar ta’lim tizimlarining mahalliy va global o‘quv

⁸⁴ W. H. Schmidt, H. C. Wang, and C. C. McKnight, "Curriculum coherence: An examination of US mathematics and science content standards from an international perspective," *Journal of Curriculum Studies*, vol. 37, no. 5, pp. 525-559, 2005.

⁸⁵ Halinen, I., & Järvinen, R. (2008). Towards Inclusive Education: The Case of Finnish Curriculum Reform. *Prospects*, 38(1), 77–97.

ehtiyojlarini qondirishda, moslashuvchanligini ta'minlashda muvofiqlik va muvozanatlilik tamoyillarining integratsiyalashuvi hamda pedagogik dizayn jarayonida ularning strategik qo'llanilishini aks ettiradi.

Dasturi samarali bo'lishi uchun o'quvchilarning kognitiv ehtiyojlarini qondirish bilan birga, ularning ijtimoiy-madaniy kontekstiga moslashgan holda milliy, mintaqaviy va xalqaro bilimlarni uyg'unlashtirish muhimdir. O'zbekiston sharoitida bu yondashuv milliy qadriyatlar va madaniy identifikatsiyani saqlagan holda, xalqaro tarkibni tanlab kiritish hamda ta'lim jarayonida mahalliy kontekstga oid bilimlarni aks ettirishni talab etadi. Bunday yondashuv global kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, maktab ta'lim dasturi o'quvchilarning lingvistik, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarini inobatga olishi lozim. Bu esa ularning ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasi va unga bo'lgan motivatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, Buyuk Britaniyaning Milliy o'quv dasturi Ekspertlar Paneli Hisobotida ta'lim dasturining madaniy moslashuvchanligi va mahalliy sharoitga mosligi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekani ta'kidlangan.⁸⁶

O'quvchilarning individual ehtiyojlari, ijtimoiy-madaniy kelib chiqishi va ta'lim muhiti chuqur tahlil qilinganda, o'quv dasturini ishlab chiquvchilar yanada samarali va motivatsion ta'lim jarayonini loyihalashlari mumkin. Ta'lim mazmunini shaxsiy xususiyatlar va kontekstual omillar asosida moslashtirish esa pedagogik differensiallash hamda inkluziv ta'lim tamoyillarini amalga oshirish imkonini beradi. Natijada, barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyat yaratilishi bilan birga, ta'lim jarayoni adolatli va mazmunli bilim olishni ta'minlaydi.

O'quvchilarga yo'naltirilgan o'quv dasturi: Tenglik va inklyuzivlik tamoyillari

O'quvchilarga yo'naltirilgan o'quv dasturi, avvalo, ularning individual kontekstlari, ehtiyojlari va tajribalarini aks ettirish orqali ishonehlilik va dolzarblikni ta'minlaydi. Samarali ta'lim dasturi o'quvchilarning o'r ganishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan tilni hamda ajratilgan vaqt resurslarini hisobga olgan holda loyihalashtiriladi.

O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'quv dasturini loyihalash

Tenglik, xilma-xillik va dahldorlik tamoyillarining o'quv dasturiga integratsiya qilinishi har bir o'quvchining o'zini qadrlangan hamda ta'lim jarayonida faol ishtirokchi sifatida his qilishiga xizmat qiladi. Bu esa inklyuziv ta'lim muhitining shakllanishiga zamin yaratadi.

⁸⁶ Banks, J. A. (2016). *Cultural Diversity and Education: Foundations, Curriculum, and Teaching*. Routledge.

Pedagogik nuqtayi nazardan, ushbu tamoyillar ijtimoiy-emotsional ta'lim, konstruktivistik yondashuv hamda madaniy jihatdan mos o'qitish asoslarini o'z ichiga oladi.

Finlyandiya ta'lim tizimi o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish bo'yicha muhim namuna bo'lib, u metakognitiv strategiyalar, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini o'quvchilarining ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirish orqali shaxsiylashtirilgan ta'limni qo'llash imkoniyatini beradi. Shu sababli, ta'lim dasturlarida tenglik, xilma-xillik va dahldorlik tamoyillarining aks ettirilishi nafaqat didaktik samaradorlikni oshiradi, balki o'quvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.⁸⁷

Finlyandiya ta'lim islohotlarida o'qituvchilarining uzlusiz kasbiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa ularga innovatsion pedagogik strategiyalarni qabul qilish, o'quvchi markazli ta'lim muhitlarini yaratish hamda ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali tashkil etish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda turli madaniy qarashlarni hisobga olish va har xil nuqtai nazarlarni targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ta'lim jarayonida ustunlik qilayotgan fikrlarni noxolis bayonotlardan xoli, inklyuziv va sezgir yondashuvlar bilan almashtirish lozim. Masalan, G'arb san'atini eng yuksak badiiy yutuq sifatida taqdim etish o'rniga, turli madaniyatlarning san'at va estetikaga qo'shgan hissasini e'tirof etish global madaniy tushunchani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida kognitiv tarafkashlikni bartaraf etish va turli nuqtai nazarlarni aks ettirish orqali o'qituvchilar nafaqat o'quv maqsadlariga erishadilar, balki inklyuziv ta'lim tamoyillarini qo'llash hamda global tafakkurni shakllantirishga hissa qo'shadilar. Shu bilan birga, ta'lim dasturlarida madaniy moslashuvchanlik, ijtimoiy adolat va teng imkoniyat tamoyillarini inobatga olish orqali har bir o'quvchining o'zini qadrlangan hamda ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qilishi ta'minlanadi.

O'quv dasturini ishlab chiqishning asosiy elementlari

O'quv dasturini loyihalashda belgilangan maqsadlar uning asosiy yo'nalishini aniqlab, mazmun va tuzilishini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Samarali o'quv

⁸⁷ OECD, "Curriculum Reform: A Literature Review to Support Effective Implementation," OECD Education Working Paper No. 227, pp. 1-116, 2020. Available at: <https://one.oecd.org/document/EDU/WKP%282020%2927/En/pdf?form=MG0AV3>

maqsadlari kompleks yondashuvga asoslanib, o'quvchilarning bilim, ijtimoiy ko'nikma va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Misol uchun, O'zbekiston Milliy o'quv dasturida ijodiy fikrlash, mas'uliyat va uzlusiz ta'limga tayyorgarlik kabi jihatlar bilan bir qatorda, umuminsoniy qadriyatlar, milliy o'zlik hamda fuqarolik mas'uliyati tushunchalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi, balki ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, Cambridge Lower Secondary dasturi o'quvchilarda kognitiv qiziquvchanlik, global tafakkur va turli fanlar bo'ylab qo'llaniladigan asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. O'quv dasturida predmetga oid maqsadlar va umumiyligini ta'lim maqsadlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash orqali izchillik, moslashuvchanlik hamda yuqori akademik standartlar ilgari suriladi. Bu esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Natijada, ta'lim jarayoni nafaqat akademik muvaffaqiyatga erishishni, balki o'quvchilarning tez o'zgaruvchan dunyoda kasbiy tayyorgarlik va mas'uliyatlari fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Samarali o'quv dasturi izchillik, muvozanat va uzlusiz rivojlanishni ta'minlash uchun aniq belgilangan tuzilma hamda puxta ishlab chiqilgan mazmun asosida shakllantirilishi lozim. Dastur tuzilmasi fanlar, modullar va mavzular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tartibga solib, ta'lim mazmunining qanday va qachon o'zlashtirilishini belgilaydi. Integratsiyalashgan o'quv modeli esa alohida fanlarning o'ziga xosligini saqlagan holda, ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi hamda ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan qiladi.

Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida dastur bosqichma-bosqich ixtisoslashuv tamoyiliga asoslanadi. Dastlabki bosqichlarda keng qamrovli mavzular, masalan, "Atrof-muhit tushunchasi" yoki "Tabiat hodisalarini anglash", o'rganiladi. Keyinchalik, o'rta va oliy ta'lim bosqichlarida bu bilimlar biologiya, kimyo va fizika kabi alohida ixtisoslashgan fanlarga ajratilib, yanada chuqurlashtiriladi. Bu yondashuv konseptual tushunchalarning izchil shakllanishi va o'quvchilarning chuqur bilim hamda amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishini ta'minlaydi.

O'quv dasturining mazmunini tanlash uning tuzilmasini to'ldirib, har bir bosqichda o'quvchilarda rivojlantiriladigan bilim va kompetensiyalarni aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda o'quv dasturini ishlab chiquvchilar "dastur dizaynerlari" sifatida harakat qilib, mavjud o'quv dasturlari, mahalliy ta'lim konteksti va xalqaro standartlar asosida

mazmunni optimallashtiradilar. Xuddi haykaltarosh marmar blokdan asar yaratganidek, ular zarur bilim va ko'nikmalarini ochib berish uchun keraksiz ma'lumotlarni chiqarib tashlaydilar.

Mazmunni shakllantirish jarayoni o'quv dasturining maqsadlariga muvofiqlikni ta'minlab, o'quvchilarda ilmiy izlanish, tanqidiy fikrlash va metakognitiv kompetensiyalar kabi muhim ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Struktura va mazmun uyg'unligi orqali o'quv dasturi yaxlit hamda moslashuvchan bo'lib, turli ta'lim ehtiyojlarini qondiradi va o'quvchilarning intellektual rivojlanishini uzlusiz ta'minlaydi.

O'quv dasturining strukturasi uning mazmuniy asosini tashkil etib, undagi tushunchalar ko'nikmalar va tarkib o'quvchilarning rivojlanish bosqichlari hamda ijtimoiy ehtiyojlariga mos ravishda izchil va mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiriladi Puxta ishlab chiqilgan struktura o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarini bosqichma-bosqich egallash o'quv bosqichlari o'rtaida muammosiz o'tish hamda mustaqil fikrlash va o'zlashtirish jarayoniga tayyorlanish imkonini beradi

Masalan Jerom Seymour Brunerning spiral o'quv modeli mavzularni turli bosqichlarda tobora chuqurlashgan va murakkablik darajasi ortgan holda qayta ko'rib chiqish orqali tushunchalarni mustahkamlash muhimligini ta'kidlaydi⁸⁸

Shuningdek o'quv dasturining strukturasi fan xususiyatlariga ko'ra moslashtiriladi ilmiy tushunchalarni chuqur o'zlashtirish izchil tushuntirish va tajribaviy dalillarga asoslanishni talab qiladi texnik ko'nikmalar aniqlik va takroriy mashg'ulotlar orqali rivojlantiriladi fikrlash qobiliyatları esa murakkab tahliliy va muammoli vaziyatlarga moslashtirilgan topshiriqlar orqali shakllantiriladi

Puxta rejalashtirilgan o'quv dasturi strukturasi o'quvchilarga boshlang'ich bilimlardan boshlab fan doirasida mustaqil tadqiqot va qo'llash darajasiga qadar izchil rivojlanish imkoniyatini taqdim etadi

Yuqori sifatli o'quv dasturlari konstruktivistik yondashuvga asoslanib empirik dalillar bilan mustahkamlangan hamda ta'limiy kompetensiyalar va kognitiv rivojlanish bosqichlariga mos tarzda loyihalashtiriladi O'quv dasturiga kiritiladigan har qanday o'zgarish ta'lim jarayonining uzviyligi fanlararo integratsiya va didaktik tamoyillarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida pedagogik ekspertiza va tizimli takomillashtirish jarayonidan o'tkaziladi

⁸⁸ <https://amshq.org/blog/curriculum/2023-09-11-tracing-the-spiral-curriculum/>

Manfaatdor tomonlar jumladan pedagoglar baholovchilar va o'quv dasturi mualliflari ta'lism jarayonining sifatini oshirish va samaradorligini ta'minlash maqsadida tizimli hamda refleksiv tahlilga asoslangan kuzatuv va takomillashtirish jarayonida ishtirot etadilar O'quv dasturlarini muntazam tahlil qilish ularning maqsadga muvofiqligi didaktik tuzilishi mazmunning qamrovi va o'quv bosqichlari bo'yicha natijaviy uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan

Shuningdek o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ta'lism yuklamasi metodik moslashuvchanlik va kognitiv rivojlanish darajalariga mosligini hisobga olish muhimdir O'quv jarayoni dizaynining o'quvchilarga yo'naltirilganligi va amaliy samaradorligi ta'limiy natijalarning sifatini oshirishga xizmat qiladi Shu bois o'quv dasturlarini doimiy ravishda tahlil qilish va takomillashtirish mexanizmi ta'lism ehtiyojlarining rivojlanib boruvchi xususiyatlariga moslashuvchanlikni ta'minlaydi hamda uzluksiz ta'lism konsepsiyasiga asoslangan holda mazmun va metodik yondashuvlarning izchil va integrativ rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi

Natijalar

Trening davomida xalqaro tajribalarga asoslangan o'quv dasturlarini loyihalash tamoyillari o'rganildi, tizimli tahlil qilindi va milliy ta'lism kontekstiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi. Finlyandiya, Singapur va Buyuk Britaniya ta'lism tizimlari namunalarini o'rganish natijasida kompetensiyaviy yondashuv, fanlararo integratsiya va ta'lism sifatini oshirish strategiyalarining samaradorligi aniqlandi. O'zbekiston ta'lism tizimida ushbu yondashuvlarni joriy etish uchun dasturlarni moslashuvchanlik, uzluksiz baholash va metodik takomillashtirish tamoyillari asosida ishlab chiqish zarurligi asoslandi. Olingan bilim va tahlillar milliy o'quv dasturlarini takomillashtirish

Xulosalar

O'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayoni mahalliy ta'lism kontekstini xalqaro ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirishga asoslangan bo'lib, uning samaradorligi moslashuvchanlik, izchillik va inklyuzivlik tamoyillariga bog'liq. Zamnaviy ta'lism tizimlari o'quvchilarning individualligi, kognitiv rivojlanishi hamda ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan yondashuvlarni talab qiladi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli o'quv dasturlari aniq ta'limiy maqsadlarga asoslangan, muntazam yangilanadigan hamda o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Masalan, Finlyandiya ta'lism tizimi o'quvchilarga yo'naltirilgan yondashuv orqali shaxsiy rivojlanish uchun moslashuvchan sharoit yaratishga urg'u beradi. Singapur o'quv dasturlarining doimiy baholash va monitoringi orqali sifatni oshirishga qaratilgan tizimli strategiyalarni amalga oshiradi. Buyuk Britaniya esa standartlashtirish va individual yondashuvni uyg'unlashtirib, ta'lism samaradorligini ta'minlaydi.

O'zbekiston ta'lism tizimida o'quv dasturlarini ishlab chiqishda milliy an'analar va zamnaviy pedagogik tamoyillar uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun

kompetensiyaviy yondashuv, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot faoliyati va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini inobatga olish zarur. O‘quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida tanqidiy fikrlash, global va mahalliy kontekstni anglash, hamkorlikda ishlash hamda murakkab muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodologiyalarni joriy etish lozim.

Natijada, O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ishlab chiqiladigan o‘quv dasturlari xalqaro ilg‘or tajribalar bilan milliy qadriyatlar, madaniy kontekst va o‘quvchilarning ehtiyojlari uyg‘unligida shakllantirilishi ta’lim sifatini oshirish hamda ta’lim oluvchilarning kelajakda raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K. S. Dillon, "Internationalization and Curriculum Development: Why and How," Journal of Pedagogic Development, vol. 4, no. 3, 2025. Available at: <https://www.beds.ac.uk/jpd/volume-4-issue-3/internationalisation-and-curriculum-development-why-and-how?form=MG0AV3>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF – 5712-son "O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida"gi Farmoni.
3. UNESCO International Bureau of Education, "Developing and Implementing Curriculum Frameworks," 2017. Available at: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000263831?form=MG0AV3>
4. Mowbray, C. T., Holter, M. C., Teague, G. B., & Bybee, D. (2003).
5. W. H. Schmidt, H. C. Wang, and C. C. McKnight, "Curriculum coherence: An examination of US mathematics and science content standards from an international perspective," Journal of Curriculum Studies, vol. 37, no. 5, pp. 525-559, 2005.
6. Halinen, I., & Järvinen, R. (2008). Towards Inclusive Education: The Case of Finnish Curriculum Reform. Prospects, 38(1), 77–97.
7. Banks, J. A. (2016). *Cultural Diversity and Education: Foundations, Curriculum, and Teaching*. Routledge.
8. OECD, "Curriculum Reform: A Literature Review to Support Effective Implementation," OECD Education Working Paper No. 227, pp. 1-116, 2020. Available at: <https://one.oecd.org/document/EDU/WKP%282020%2927/En/pdf?form=MG0AV3>
9. <https://amshq.org/blog/curriculum/2023-09-11-tracing-the-spiral-curriculum/>